UDK:633.51

G‘O‘ZANI O‘SISHI VA RIVOJLANISHIGA STIMULYATORLARNI MAJMUIY QO‘LLASHNING TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ КОЛЛЕКТИВНОГО ПРИМЕНЕНИЯ СТИМУЛЯТОРОВ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ ХЛОПЧАТНИКА

THE EFFECT OF COLLECTIVE USE OFSTIMULANTS ON THE GROWTH AND DEVELOPMENT OF COTTON

Sulaymonova Shahlo Novattullo qizi,

Сулаймонова Шахло Новатулло кизи,

Sulaymonova Shahlo Novattullo kizi

PSUYAITI. Doktarant

НИССАВХ. Докторант

CBSPARI. PhD

shahlo-sulaymonova@mail.ru

Annotatsiya. Respublikamizda qishloq ho‘jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda stimulyatorlar muhim ahamiyatga ega. g‘o‘zaga Lebozol guruhi stimulyatorlari bilan majmuiy ishlov berilganda, o‘simliklar o‘sishi va rivojlanishini o‘rganishdan iborat. G‘o‘zaning 3-4 chin barg, shonalash va gullash davrlarida Lebozol guruhining Lebozol PK Maks, Lebozol Magfos va Nutriplant 8-8-6 biostimulyatori Lebozol Bor, Lebozol Mags SK, Lebozol Kaliy 450, Lebozol Kvadro Miks va Aminozol stimulyatori bilan majmuiy ishlov berilganda o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi jadallashib, bo‘yi 2,5-4,2 sm baland, hosil shoxlari 0,6 dona, ko‘saklar soni 0,3-1,7 donaga ko‘proq ekanligi aniqlangan.

Аннотация. Стимуляторы играют важную роль в производстве высококачественных культур в нашей стране. Исследованы рост и развитие растений при обработке хлопчатника комбинацией стимуляторов группы Лебосол. В периоды цветения хлопчатника и роста 3-4 листьев хлопчатника коллективные стимуляторы Лебосол: Лебозол ПК Макс, Лебозол Магфос и Нутриплант 8-8-6 биостимуляторы Лебозол Бор, Лебозол Магс СК, Лебозол Калий 450, Лебозол Квадро Микс и Аминозол ускорили рост и развития растения. Определено, что он был 2,5-4,2 см высотой, с 0,6 ветвями и еще 0,3-1,7 коконами.

Annotation. Stimulants play an important role in the production of high quality crops in our country.The growth and development of plants were studied when cotton was treated with a combination of Lebosol group stimulants.During flowering periods of cotton and the growth of 3-4 cotton leaves collective Lebosolstimulants:Lebozol PK Max, Lebozol Magfos and Nutriplant 8-8-6 biostimulants Lebozol Boron, Lebozol Mags SK, Lebozol Potassium 450, Lebozol Quadro Mix and Aminozol accelerated the growth and development of the plant. It was determined that there was 2.5-4.2 cm tall, with 0.6 branches and 0.3-1.7 more cocoons.

Kalitsoʻzlar.Gʻoʻza, stimulyator, oʻsish, rivojlanish, ishlovberish, chinbarg, shona.

Ключевые слова.Хлопок, стимулятор, рост, развитие, переработка, лист, ветка.

Keywords. Cotton, stimulant, growth, development, processing, leaf, branch.

Bugungi kunda dunyoning bir qator rivojlangan davlatlarida fiziologik va biologik faol moddalardan qishloq xoʻjaligida keng foydalanib, iqlimning global oʻzgarishi sharoitida nihollarning sogʻlom va qiygʻos unib chiqishi, oʻsimlikning jadal oʻsishini taʼminlash, oʻsimlik agrotsenozida fotosintez, nafas olish va moddalar almashinuvini yaxshilash orqali tuproq, suv va resurslardan oqilona foydalanib, yuqori hosil yetishtirishga ijobiy taʼsir etishi dunyoning nufuzli universitetlari va

ilmiy markazlarida aniqlangan. Ma’lumki, paxtachilikda g‘o‘zani tashqi muhit ta’sirlariga chidamligini oshirish, ertagi, yuqori va sifatli hosil yetishtirish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda qishloq ho‘jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda stimulyatorlar muhim ahamiyatga ega. Chigitlarni ertagi va bir tekis undirib olish, kasalliklarga bardoshligini oshirish va g‘o‘zaning o‘sib rivojlanishi yaxshilash natijasida, paxtadan yuqori va sifatli hosil olish uchun gumin asosli stimulyatorlarni qo‘llashning maqbul muddat va me’yorlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

G‘o‘zanio‘sishi va rivojlanishiga simultorlarni ta’sirini birqator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Sh.X.Abdualimov F.A.Abdullaevlarning e’tirof etishicha tajribalariga ko‘ra Gumi 20 stimulyatorlari qo‘llanilganda ham paxta hosili yukori bo‘lib 31,3 s/ga ni tashkil etgani xolda nazoratdan 3,2 s/ga ko‘prok hosil olishga erishildi. Tipik bo‘z tuproklar ta’sirida Guminli stimulyatorlardan Gumimaks chigitga ekish odidan 0,8-0.,l/t va g‘o‘zaning shonalash gullash davrida 0,3l/ga, Uzgumi chigitga 0,7-0, l/t shonalash gullash davrida 0,3-0,4 l/ga Kgmu chigitga 3-4 kg/t va shonalash gullash davirlarida 0,5 kg/ga, Gummi 20 chigitga 1,0 l/t va shonalash gullash davrlarida 0,5-0,1 l/ga meyorlarda qo‘llanilganda nihollarning unib chikishi 10-15%t tezlashib, o‘simliklarning o‘sib rivojlanishi yaxshilanib kuruk massasi va barg yuzalarining ortishi na’tijasida fotosintetik sof maxsuldorliginig yaxshilangani paxta hosili 4,2-5,4 s/ga ortishi aniqlangan [1].

Sh.A.Karimovning ta’kidlashicha stimulyato‘rlar qo‘llannilganda fotosinez jarayoni jadal ravishda o‘tib, fotosintetik sof maxsuldorligi nazorat variantlariga nisbatan tuzilishiga 0,61-3,59 g/m ko‘prok bo‘lgani qayd etildi. Obereg, Natriy gumad, Fitovak kabi yangi stimulyatorlar g‘o‘za bargintng paydo bo‘lishi, shakillanishi va barg yuzasiga xam fotosintez jarayoonlarining maqbul kechishiga

ijobiy ta’sir kiladi. Na’tijada paxta hosildorligi ortib, natriy gumad 30% pasta bilan ishlov berilganda 1,9 s/ga Fitovakda 2,0-3,2 s/ga ko‘shimcha hosil olindi [3].

Tadqiqotningmaqsadi, g‘o‘zaga Lebozol guruhi stimulyatorlari bilan majmuiy ishlov berilganda, o‘simliklar o‘sishi va rivojlanishini o‘rganishdan iborat. Tadqiqotda Germaniyaning LEBOZOL DYUNGER GMBX firmas itomonidan ishlab chiqarilgan Aminozol, LebozolBor, LebozolMagSSK, LebozolKaliy 450, LebozolPKMaks, LebozolKvadroMiksS, LebozolMagfos, Nutriplant 8-8-6 preparatlarini O‘zbekiston sharoitida g‘o‘zada majmuiy qo‘llashning o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlarida dala tajribalarini tahlillari, fenologik kuzatuvlar va hisoblashlar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” [2] uslubiy qo‘llanmalariga muvofiq olib borildi.

Tadqiqotlar PSUYAITI tajriba dalalarida (Toshkent viloyati Qibray tumani) tipik bo‘z tuproqlar sharoitida o‘tkaziladi. Lebozol biostimulyatori bilan ish olib borish, ya’ni 2020 yildan tajribalar o‘tkazilib unda tajriba tizimi 6 tavariant 3 ta qaytariqda olib borildi. Bunda oltita variant qilib joylashtirildi v a3-4 chin barg davrida, shonalash va gullash davrlarida turli xil me’yor va muddatlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Tajribada g‘o‘zaning gullash davrida Lebozol guruhi stimulyatori majmuiy qo‘llanilgandan keyin g‘o‘zaning biologik holati tahlil qilinganda, stimulyatorlari majmuiy qo‘llanilgan variantlarda g‘o‘zaning o‘sishi va generativ organlarining paydo bo‘lishi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon qilgan.

G‘o‘zaning o‘suv davri oxirida nazoratda bo‘yi 100,5 sm, hosil shohlari 16,4 dona va ko‘saklar soni 9,2 donini tashkil etgan holda Uzgumi biostimulyatori qo’llanilgan variantda o‘simlik bo‘yi 100,8 sm, hosil shoxlar soni 16,1 dona va ko‘saklar soni 10,2 dona, Lebozol biostimulyator guruhi majmuiy qo‘llanilgan

variantlarda g‘o‘zaning bo‘yi 97,8-104,7 sm, hosil shoxlar soni 16,0-17,0 dona, ko‘saklar soni 9,8-10,8 donaga teng bo‘lgani aniqlangan.

Ta’kidlash lozimki, Lebozol guruhi biostimulyatori bilan majmuiy ishlov berilgan variantlarda g‘o‘zaning bo‘yi nazoratdan 2,5-4,2 sm baland, hosil shoxlari 0,6 dona, ko‘saklar soni 0,7-1,6 donaga ko‘proq bo‘lgan.

Shunday qilib, Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida Lebozol guruhi stimulyatori g‘o‘zaning 3-4 chin barg, shonalash va gullash davrlarida majmuiy qo‘llanilganda g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan holda ko‘saklar soni 0,3-1,7 donaga ortgan va ko‘saklarning ochilishi 8,4-15,2%

Olib borilgan tadqiqotdan olingan xulosa Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning 3-4 chin barg, shonalash va gullash davrlarida Lebozol guruhining Lebozol PK Maks, Lebozol Magfos va Nutriplant 8-8-6 biostimulyatori Lebozol Bor, Lebozol Mags SK, Lebozol Kaliy 450, Lebozol Kvadro Miks va Aminozol biostimulyatori bilan majmuiy ishlov berilganda o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi jadallashib, bo‘yi 2,5-4,2 sm baland, hosil shoxlari 0,6 dona, ko‘saklar soni 0,3-1,7 donaga ko‘proq ekanligi aniqlangan.

Foydalanilganadabiyotlar

1. Abdualimov, SH.X, Abdullaev F.A. Gumin samarali stimulyator //Dexkonchilik tizimida ziroatlardan mol xosil etishtirishning manba va suv tejovchi texnnalogiyalar mavzusidagi halkaro ilmiy-amaliy kanfrensiya maruzalari to‘plami T-2010 233-236b.

2. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. O‘zPITI, T, 2007, 147 b.

3. Karimov SH.A. YAngi stimulyatorlarni g‘o‘za barg yuzasi va fotosintetik mahsuldorligiga ta’siri// Dala ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va

agrotexnalogiyalarining dolzarb yoʻnalishlari mavzusidagi xalkaro ilmiy amaliy kanfrensiya materallari toʻplami. 2016y 2-kism 375-374b.

4. Raxmonov N.N., Abduraxmonov M.N.Guminli stimulyatorlar chigit unuvchanligini oshiradi.\\ Kishlok xoʻjaligi selleksiyasi va urugʻchiligi soxasining xozirgi xolati va rivojlanish istikbollari nomli Respublika ilmiy- amaliy anjumani ilmiy anjumani ilmiy materiallari.Moresuper va Uzgumi stimugyatorlarining gʻoʻza xosil elementlari shakillanishi va koʻsaklarining ochilishiga taʼsiri. T-2015 310-312b.